



## SHARQSHUNOSLIK QO'LYOZMALAR INSTITUTIDA SAQLANAYOTGAN ABU LAYS SAMARQANDIYNING "ISTEORA" ASARI NUSXALARI

Rizayev G'ayrat Mukumovich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola Samarqandda yashab ijod qilgan ulug' alloma, hanafiy fiqhi olimi, adib Abul-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiy, u kishining ijodi va asarlari, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutida saqlanayotgan "favoidu-avoid" nomli "isteora" risolasi, asarning tarkibiy tuzilishi, badiiy uslubining ishlatalishi, matniy tahqiqi va ushbu qo'lyozmaning saqlanayotgan nusxalari haqida so'z yuritildi.*

**Kalit so`zlar:** *Istiora, "favoidu-avoid", majoz, kinoya, tarshih, fariyda.*

Tarixdan xabari bor kishilar yurtimiz jahonga juda ko'plab olim-u ulamolar yetkazib bergen, ilm-taraqqiyot yuksalishiga katta xissa qo'shganlarini yaxshi biladi. Matematika sohasiga al-Xorazmiy, astranomiya ilmiga Mirzo Ulug'bek, meditsina sohasidagi Abu Ali ibn Sinoning qo'shgan beqiyos xissasini barcha e'tirof etadi. Bundan tashqari, kalom ilmi, hadis, fiqh, tafsir va falsafa ilmlarining rivojiga o'zlarining beqiyos xissalarini qo'shganlar. Buyuk olimlarimiz darajalarini bayon qilishda nafaqat "mavorounnahr oimlari" iborasi qo'llanishi, balki, hududlar bilan "Nasaf oimlari", "Buxoro mashoyixlari" kabi atamalarni ishlatalishgan. Bu har bir soha yuzasidan hududlarda alohida ilmiy ishlar olib borilganligini belgilaydi.

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida, xususan, Movorounnahrda buyuk allomalar, muhaddislar, mufassirlar, ilm-ma'rifatda yetuk insonlar to'planib doimiy fikr almashib, tadqiqiy izlanib, ilmiy majlislar, anjumanlar o'tkazib turishgan. Bunday ishlar limning rivojiga katta xissa qo'shishi tabiiydir. Bunday anjumanlar bahs-munozara, o'zaro ilmiy tortishuvlar tarzida o'tkazilgan. Ana shunday ilmiy izlanishlar X asrga kelib yanada rivojlangan. (1.23)

Hozirgi kunda aruz, poetika ilmi nomlari bilan bizga tanish bo'lgan balog'at ilmi borasida ham yetuk olimlar yurtimizdan yetishib chiqqan. Bu ilm borasida Ahmad Taroziy "Funun al-balogs'a" asarini, Az-Zamaxshariy "Al-Mufassal fi sina'at al-arab" asarini, Abu Abdulloh Xorazmiyning "Mafotih al- ulum" asarini, Yusuf Sakkokiyning "Miftohul-ulum" asarini, shuningdek, Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiyning "Isteora" risolasini keltirish mumkin. (2.14)

Bir tahallus bilan bir necha olimlar tanilgani ularning yuksak salohiyatini yana bir dalilidir. Abu Lays Samarqandiy nomi ham bir necha olimlar ijod qilgan tahalluslardan hisoblanadi. Abu Lays Samarqandiy nomi tilga olinganda ko'pchilik mashhur Abu Nasr al-Laysiy as-Samarqandiyni tushunadi. Lekin, bu ismning tarixiga e'tibor bersak, bir necha ulug' olimlar ushbu nom bilan ijod qilganini, asarlar qoldirganini bilamiz. Abu



Rayxon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar institutining birligining fondida Abu Lays ismli to'rtta olimlarning qo'lyozma asarlari saqlanadi. Bular orasida Abu Lays kunyasi bilan tanilgan to'liq ismi Abul-Qosim ibn Abu Bakr Al-Laysiy as-Samarqandiy ham borki, u kishi hozirgi omma orasida unchalik mashhur emas.

Abul-Qosim Al-Laysiy as-Samarqandiyning tug'ilgan yillari ma'lum emas, vafotlari taqriban 888-hijriy, 1483- milodiy yilga to'ri keladi. Hanafiy fiqhida olim va adib kishilardan xisoblanadi. Bu kishining bizgacha yetib kelgan asarlari to'rttadir. U asarlari quyidagilar:

- 1) "Ar-Risola as-Samarqandiyya" nomli "isteora" haqidagi asar.
- 2) "Mustahlisul-haqoq sharhi kanzul-daqoq" hanafiy fiqhiga oid asar.
- 3) "Hoshiya alal-mutavval" nomli balog'at faniga oid asar.
- 4) "Sharhur-risola al-Azdiyya" nomli asari. (3.41)

Muallifning barcha asarlari arab tilida yozilgan. Bu asarlarning keying uchtasi boshqa mualliflarning asarlariga sharh yoki hoshiya xisoblanadi. Faqat, "isteora" haqidagi asari o'z qarashlari va xulosalari jamlangan risolasidir. Bu asarda balog'at ilmining majoz va tashbeh qismiga aloqador isteora haqida so'z yuritilgan.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: "Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarni bilganimizdan so'ng, barcha jabhada kitoblar ta'lif qilingan, shuncha nashrlardan keyin merosimizni ochib beradigan va namoyon etadigan yangi qo'lyozmalar kerakmi?" Soha mutaxassislari bunga javoban:

"Ha, albatta. Bunga bizning ehtiyojimiz ikki maqsadda katta ahamiyatlidir:

a) bibleografiya va tarjima kitoblarida tez-tez uchraydigan qo'lyozmalarni qidirishda muhim.

b) Ba'zi nashr qilingan kitob, ilmiy nashr va shunga o'xshash ilmiy ishlarimiz kelib chiqishi nomalum bo'lgan yoki to'liq bo'lмагan manbalarda bosilgan. Bundan tashqari, ba'zi bosma kitoblarimizda qayta ko'rib chiqilishi va nashr etilishi kerak bo'lgan qimmatli qo'lyozmalar bo'lgan. Ilmiy intelektual merosning qadr-qimmati uning merosni tiklashdagi o'rni, tuyg'usi bizni qo'lyozmalarni tadqiq qilishga chorlaydi. Bu tadqiqotni ahamiyati va maqsadi ham shundadir.

O'z.R.F.A. Abu Rayxon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar Sharqshunoslik institutida Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiyning yuqorida biz tilga olgan "isteora" asarining 30 dan ortiq qo'lyozma nusxalari bor. Bu birligining fonddag'i qo'lyozma nusxalar. Undan tashqari XIX, XX asrga oid ko'plab toshbosma nusxalari mavjud. Muallifning ismi ikki xil nom bilan keltirilgan. Biri Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiy bo'lsa, boshqasida "Ibn Abu Bakr" ziyodani toppish mumkin. Qo'lyozmalarning aksarlari yaxshi saqlangan, har xil asrlarga tegishli nusxalardir. Asar qisqa va mo'jaz bo'lgani uchun jamlanma asarlar holida to'plam kitoblarda keltirilgan. Qo'lyozmalarning eng yaxshi saqlangan nusxalaridan biri asosiy fontdag'i raqamli qo'lyozmadir.

Asarning eng sara nusxalaridan biri asosiy fonddagi fihristdan 8334 raqamli nusxadir. Kitob 1273 yilda yozilgan. Ushbu kitobda 12 ta asar mavjud bo'lib, turli xil asarlardir. Abu Lays samarqandiyning "isteora" risolasi 5-asar bo'lib, 84-86 sahifalarda



kitobga kiritilgan. Ushbu kitob yaxshi saqlangan va qayta tamirlangan. Muqovasi qalin kartondan, bezakli. Chetida o'yib bezak berilgan ramka bor. O'rtada katta naqsh bezak va tepa –pastida ikki (lola) naqshi bor. Sahof joyi teri bilan qoplangan. Kitobdag'i asarlar o'ziga xos ikki ramkaga olingan. Avvalgisi sariq tillo rangda va ichkisi qizil rangda. (4.62)

Abu Laysning "Isteora" asari risola nomi bilan yuritilgan. Bunga sabab, asar hajmi kichikligi. Asarning matnlariga e'tibor bersak, muallif o'z asarini imkon qadar mo'jaz bo'l shini hohlagan. Shuning uchun hamd va na'tni ham qisqa yozgan. Odatga muvofiq, o'sha davr olimlari o'z asarlarini boshlashda ikki xil yo'l tutishgan. Birinchisi, mualliflar nazmiy uslubda hamd va na'tni keltirishgan yoki balog'atli ma'noga ega nasriy uslubda yozishgan. Uchunchi uslubdagi kishilar, asar muallifi Abu Lays Samarqandiy ham shu uslubda, hamd va na'tni qisqa keltirib, darhol asosiy maqsadga o'tishgan. Bunday yo'l tutilishining sababi bir nechadir. Masalan, vaqtdan yutish yoki o'sha vaqtarda qimmatli hisoblangan qog'ozni tejash yohud asar uzayib ketishi, natijada o'qiguvchi fikrlarini jamlashdan uzoqlashishi, malollanmasligi uchundir. Muallif mana shu oxirigi sabab bilan hamd va na'tni qisqa qilgan. Bu haqida asarni davomida ishora qilgan:

فَأَرْدَتْ ذِكْرَهَا مُجْمَلَةً مُضْبُطَةً...

"Eslab qolish oson va ixcham holatda keltirishni hohladim." (5.47) Muallif bu jumlanı beziz keltirmagan. Chunki, barcha adiblar qaysi sohada ijod qilmasin, aksaryat hollarda asarlari muqaddimasini hamd va na't bilan boshlaganlar. Yozuvchilar bor so'z san'atini, mahoratini qaysidir ma'noda muqaddimada ochib berishgan. Muallifning bunday yo'sinda yondashishi, u kishi asarni o'ziga urg'u bergenligini izohlaydi.

Abu Lays Samarqandiy asarni "uch aqd"ga bo'lgan. "Aqdun" so'zi arab tilida bog'lash, tugun, arka manolarini, "iqdun" so'zi esa marjon shodasi ma'nosini anglatadi. Bu o'rinda "bo'lim" ma'nosini so'z san'ati bilan shoda so'zi orqali ifodalagan. Har bir bo'lim alohida mavzu boblaridan iborat. Muallif bir necha matn bilan o'z maqsadini va risolasini yozilish sababini ochib bergen. Shu bilan birga, asarni yozishda mutaqoddim o'tgan olimlarni va o'zi yashab turgan davrdagi olimlarni fikrlarini jamlagan. Bu haqida ushbu asarida:

"Shuning uchun men, isteoralarni mutaqoddim ( avvalgi o'tgan) ulamolarning kitoblarida keltirilgan su'ratda, shu bilan birga, mutaaxxir (keying davr) ulamolari kitoblariga keltirilgan ma'lumotlarga dalolat qiladigan holatda keltirishni hohladim." – deb yozgan. (6.93)

Birinchi bo'lim olti bobdan iborat bo'lib, majozning navlari haqidadir. Har bir bobini isteoraga tegishli mavzularga bo'lgan va o'ziga xos misollar bilan keltiurgan. Birinchi bob "mufrad majoz" haqida, ya'ni so'z asl ma'nosidan boshqa ko'chma ma'noda ishlatilgan o'rinni. Ikkinci bob "asliy va tabiiy" isteora haqida, uchinchi bob hissiy yoki aqliy yondashuv e'tiboridan "haqiqiy va hayoliy" isteora haqida. Keyingi ikki bobda "mutloq va mujarrad (yolg'iz)" isteora haqida so'z yuritilgan. Oltinchi bobda esa "majozi murakkab" misollar bilan ochib berilgan.



Ikkinchi bo'limda muallif Abu Lays as-Samarqandiy isteora ma'nolarini kinoya bilan farqlari, o'xhash o'rirlari, ajratib olish yo'llari va shu kabi isteora va kinoyaga aloqador masalalarini yoritgan. Bu bo'lim 4 bobdan iboratdir. Birinchi bobda salaf ulamolarning isteora va kinoya haqidagi fikrlari keltirilib, ularning nozik jihatlari misollar bilan keltirilgan. Keying boblarda esa, muallif zamoniga yaqin olimlar imom Sakkokiy, Hatib Bog'dodiylar fikri va dalillari keltirilgan.

Uchinchi bo'limda muallif isteoraning boshqa xossalari haqida so'z yuritib, o'z xulosalarini keltirib o'tgan. Bu bo'limni 5 bobga ajratib, har bir bobga misollar bilan yondashgan. Bunda balog'at fani olimlari, u ilm asosida kitob ta'lif qilgan adiblar, ularning qarashlari ham keltirilgan. Xususan, "Sohibul-Kashshof" atamasi bilan imom Zamaxshariyga ishora qilgan. Shuningdek, hatib Bog'dodiy, imom Sakkokiylarning boshqa qarashlari ham keltirilgan.

Ushbu risolani matnlariga e'tibor qaratsak, kichik hajmli bo'lishiga qaramay ko'pchilik talabalar tominidan sevib o'qilgan ekanini, o'ziga xos mavqega ega ekanini ko'ramiz. Sababi, Abu Rayxon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar institutining bиргина "asosiy fondi"da muallifning ushbu asarini 40 dan oshiq qo'lyozmalari saqlanadi. Bundan tashqari, bir qancha toshbosma va faksimel nusxalari mavjud.

Diyormizdan yetishib chiqqan bu ulug' olimning ushbu asari nafaqat yurtimizda, balki, ko'plab chet davlatlari kutubxona va muzeylarida saqlanadi. Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan "Sulaymoniyya" institutida qo'lyozma nusxasidan tashqari asarning bir necha sharhlari ham mavjud. Bundan tashqari, Birlashgan Arab Amirliklari davlatidagi "Shayx Muhammad ibn Roshid al-Maktum" nomidagi keng ko'lamli qadimiylari va noyob asarlar saqlanadigan bilim yurtida ham ushbu asar, uning sharhlari, u haqida qilingan magistrlik va doktorlik ishlari mavjud.

Afsuski, muallifning ushbu asari hozirgi kunda yurtimiz kitobxonligida u qadar mashhur emas. U asar haqida qilingan ishlarga nazar solsak, o'tgan yillar davomida matnshunos olim Hamid Sulaymon tomonidan qilingan bиргина matniy tahqiqi va bir nexha bosma nusxalaridan boshqa, aytarli, ish olib borilmagan. Balog'at ilmining bir bo'lagi sifatida qaraladigan isteora haqidagi ushbu asar kengroq tahlil qilinsa va undagi foydalar o'rganilsa kelajak avlod uchun foydali va manfaatli bo'ldi degan umiddamiz. Qanchadan-qancha o'z tahqiqini va tahlilini kutib turgan matnlarni o'rganish esa, bizning burchlarimizdandir.

## FOYDALANGAN MANBALAR:

1. Islom tarixi va ma'naviyat. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.
2. Balog'at ilmi. Zokirjon Sharipov. – Toshkent: "Movorounnahr" nashriyoti, 2014.
3. Balog'at ilmi va unga xissa qo'shgan olimlar. Ahmad ibn Solim an-Nuriy. – Bayrut: "Dorul-ilm". 2007.



4. O'z.F.A. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti, asosiy fondida saqlanayotgan "PN 4697 - VIII" raqamli qo'lyozma.
5. O'z.F.A. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti, asosiy fondida saqlanayotgan "P 2434-I" raqamli qo'lyozma.
6. O'z.F.A. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti, asosiy fondida saqlanayotgan "P 5169 - XIII" raqamli qo'lyozma.
7. "An-Na'ym ul-Kabir" arabcha-o'zbekcha lug'at. Namangan Davlat Universiteti. – Namangan: "NAMANGAN" nashriyoti. 2014.